



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusuf, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

Barqaror transport tizimini rivojlantirish tavsiyalari: Jamoat transport xizmatini kengaytirish va sifatini oshirish; yo‘l tarmog‘ini qayta rejalashtirish va tirbandlikni kamaytirish; piyodalar va velosipedchilar uchun imkoniyatlarni kengaytirish; shahar markazi va turar joy zonalari orasidagi masofani qisqartirish; shahar aholisi uchun transportni kombinatsiyalash – metro/avtobus/jamoat transporti yoki taksi zaruratga qarab.

Shu yondashuv Urganch shahri uchun barqaror, ekologik va iqtisodiy jihatdan samarali transport tizimini yaratishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. ШНҚ 2.07.01-23 Аҳоли пунктларининг ҳудудларини ривожлантириш ва қуришни шаҳарсозлик жиҳатидан режалаштириш.
2. Anna Eliza Wolnowska, and Lech Kasyk “Transport Preferences of City Residents in the Context of Urban Mobility and Sustainable Development”
[Transport Preferences of City Residents in the Con.pdf](#)
3. М. Ю. Калмыков, Н. В. Малышев “Проблематика Транспортных Систем”
[perspektivnye-tehnologii-passazhirskih-perevozok-v-usloviyah-urbanizatsii.pdf](#)
4. Dr. Jean-Paul Rodrigue “Urban Transport Challenges”

QURILISH SOHASIDA INVESTITSİYALARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI

F. S. Atadjanova

TAQU katta o‘qtuvchisi

N.B. Allasugirov

TDIU tayanch doktornati

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot uy-joy qurilishi sohasida investitsiyalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatini tahlil qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, davlat mablag‘larining yuqori ulushi va resurs tejamkor texnologiyalarning cheklangan qo‘llanilishi sohada samaradorlikni pasaytirmoqda. Xususiy sektor ishtirokidagi loyihalar esa yuqori rentabellik, qisqaroq qaytish

muddati va yuqori samaradorlik ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi. Takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida xususiy kapitalni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish hamda raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlarini keng joriy etish taklif etiladi.

Аннотация

В исследовании рассматривается необходимость совершенствования организационно-экономических механизмов управления инвестициями в жилищное строительство. Установлено, что высокая доля государственных средств и ограниченное использование ресурсосберегающих технологий снижают эффективность проектов. В то же время проекты с участием частного капитала отличаются большей рентабельностью и более коротким сроком окупаемости. Предлагается усилить привлечение частных инвестиций, развивать механизмы государственно-частного партнерства и внедрять цифровые системы управления.

Abstract

This study analyzes the necessity of improving the organizational and economic mechanisms for managing investments in the housing construction sector. Findings indicate that the dominance of public funds and the limited use of resource-saving technologies reduce overall efficiency. Projects involving private capital, however, demonstrate higher profitability and shorter payback periods. Key recommendations include increasing private sector participation, developing public-private partnership mechanisms, and implementing digital management systems.

Kalit so'zlar

Uy-joy qurilishi, investitsiya, boshqaruv mexanizmi, samaradorlik, xususiy sektor.

Ключевые слова

Жилищное строительство, инвестиции, механизмы управления, эффективность, частный сектор.

Keywords

housing construction, investment, management mechanisms, efficiency, private sector.

Kirish (Introduction)

So'nggi yillarda O'zbekistonda uy-joy qurilishi iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylandi. Aholi turmush darajasining oshishi, urbanizatsiya

va infratuzilmaga ehtiyoj ortishi qurilish bozorida investitsiya faolligini kuchaytirmoqda. Davlat tomonidan ipoteka dasturlari va xususiy kapitalni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar investitsiya muhitini yaxshilamoqda. Shu bilan birga, resurslarni samarali taqsimlash, investitsiyalarning qaytishini ta'minlash, material va texnologiyalardan oqilona foydalanish kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Investitsion loyihalarning moliyaviy barqarorligi va samaradorligini kafolatlovchi mexanizmlar yetarli darajada rivojlanmagan. Shuning uchun uy-joy qurilishida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish zarur bo'lib, bu jarayon investitsion salohiyatdan samarali foydalanish, innovatsion va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, samarali boshqaruv tizimi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ham yordam beradi.

Metodologiya (Methods). Ushbu tadqiqotda uy-joy qurilishi sohasida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuv ishlab chiqildi. Bunda bir nechta usullar qo'llanildi. Avvalo, ilmiy-nazariy tahlil orqali me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va xalqaro tajriba o'rganilib, mavjud mexanizmning afzalliklari va kamchiliklari aniqlangan. Shuningdek, Davlat statistika qo'mitasi va tegishli vazirliklarning rasmiy ko'rsatkichlari tahlil qilinib, investitsiyalar hajmi, tarkibi va moliyalashtirish manbalari baholandi[5]. Qiyosiy tahlil asosida Janubiy Koreya, Turkiya, Germaniya va Rossiya tajribasi o'rganilib, O'zbekiston sharoitiga mos xulosalar ishlab chiqildi. Iqtisodiy-matematik modellashtirish yordamida investitsiyalarning moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi indikatorlar ishlab chiqildi. Shuningdek, ekspert baholash usuli asosida mutaxassislar fikrlari o'rganilib, tizimning kuchli va zaif tomonlari hamda takomillashtirish yo'nalishlari belgilandi. Ushbu metodologiya investitsiyalarni boshqarish mexanizmini tizimli yondashuv asosida o'rganish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[6].

Natijalar va muhokama (Results & Discussion). Tadqiqot davomida O'zbekiston uy-joy qurilishi sohasida investitsiyalarni boshqarishning amaldagi holati, ularning samaradorlik darajasi hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining mavjud muammolari o'rganildi. Olingan natijalar quyidagicha umumlashtiriladi:

Birinchidan, so'nggi yillarda O'zbekiston uy-joy qurilishi sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshgan. 2018–2023-yillar davomida investitsiya hajmi 1,7 barobarga ko'paygan bo'lib, bu mamlakatda qurilish bozorining barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi. Biroq, investitsiyalarning katta qismi davlat mablag'lari va ipoteka kreditlariga to'g'ri keladi, bu esa xususiy kapitalni jalb qilish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda[1].

Ikkinchidan, uy-joy qurilishiga kiritilayotgan investitsiyalar tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, mablag'larning asosiy qismi qurilish-montaj ishlariga sarflanmoqda. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurs tejamkor materiallardan foydalanish va energiya samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda.

1-jadval.

O'zbekistonda uy-joy qurilishiga yo'naltirilgan investitsiyalar dinamikasi (2018–2023-yillar)

Yil	Umumiy investitsiyalar hajmi (mlrd so'm)	O'sish sur'ati (%)	Xususiy sektor ulushi (%)	Davlat mablag'lari ulushi (%)
2018	24 560	100	32,1	67,9
2019	27 840	113,3	34,0	66,0
2020	29 410	105,6	35,2	64,8
2021	33 780	114,8	37,5	62,5

2022	38 920	115,2	39,8	60,2
2023	41 820	107,5	41,3	58,7

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2018–2023-yillar mobaynida investitsiyalar hajmi barqaror o‘sib borgan. Shu bilan birga, xususiy sektor ulushi bosqichma-bosqich ortib, 32,1 foizdan 41,3 foizga yetgan. Bu esa bozorga tadbirkorlik subyektlari sarmoyalarining kirib kelayotganidan dalolat beradi[2].

Uchinchidan, uy-joy qurilishi sohasida investitsiyalarning samaradorlik darajasi past darajada saqlanib qolmoqda. Asosiy muammo shundaki, ko‘plab loyihalarda iqtisodiy va ijtimoiy natijalarni baholash mexanizmlari yetarli darajada qo‘llanilmayapti. Shu sababli ayrim investitsion loyihalar uzoq muddatda o‘zini qoplamaydi yoki moliyaviy barqarorlikni ta‘minlamaydi.

2-jadval.

Uy-joy qurilishi sohasida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (2023-yil holatiga)

Ko‘rsatkichlar	Davlat investitsiyalari loyihalari	Xususiy investitsiyalar loyihalari
O‘rtacha investitsiya rentabelligi (%)	9,8	14,6
Loyihalarning qaytish muddati (yil)	12,4	8,7
Resurs tejamkor texnologiyalar ulushi (%)	18,3	27,5
Energiya samaradorligi ko‘rsatkichi (%)	22,6	35,4

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xususiy sektor tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar samaradorlik jihatidan ustunlikka ega. Xususan, investitsiya rentabelligi davlat loyihalariga nisbatan 1,5 barobar yuqori, qaytish muddati esa qisqaroq. Bundan tashqari, xususiy loyihalarda resurs tejamkor texnologiyalarni qo‘llash ulushi va energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari ham yuqoridir[3].

Muhokama davomida shuni ta'kidlash lozimki, uy-joy qurilishi sohasida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga olishi zarur:

investitsion loyihalarda innovatsion va resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish;

xususiy kapitalni jalb qilish uchun moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish;

davlat va xususiy sheriklik (ppp) asosida amalga oshiriladigan loyihalarni kengaytirish;

investitsiyalarning ijtimoiy samaradorligini baholash indikatorlarini joriy etish;

qurilish jarayonlarida raqamlashtirish va monitoring tizimlarini rivojlantirish[4].

Natijalar shuni ko'rsatadiki, uy-joy qurilishi sohasida investitsiyalarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish mamlakat iqtisodiy o'sishini jadallashtirish, aholining turmush darajasini oshirish va qurilish tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega[7].

Xulosa

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston uy-joy qurilishi sohasida investitsiyalar hajmi izchil ortib bormoqda, biroq ularning samaradorligi to'liq darajada ta'minlanmagan. Davlat mablag'larining yuqori ulushi, xususiy kapital ishtirokining yetarli emasligi, resurs va energiya tejamkor texnologiyalarning cheklangan qo'llanilishi hamda ijtimoiy samaradorlikni baholash mexanizmlarining rivojlanmaganligi mavjud muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xususiy sektor ishtirokidagi loyihalar yuqori rentabellik va qisqa qaytish muddatiga ega bo'lib, ularning resurs tejamkorlik darajasi ham yuqoridir. Shu bois sohada xususiy kapitalni keng jalb etish, investitsion loyihalarda iqtisodiy natijalar bilan birga ijtimoiy samaradorlikni ham baholash, resurs va energiya samarador texnologiyalarni keng joriy etish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish va raqamlashtirilgan monitoring tizimini qo'llash uy-joy qurilishi

sohasida investitsiyalarni boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2023). Uy-joy qurilishi sohasida investitsiyalar hajmi va tarkibi bo‘yicha hisobot. Toshkent: Davstatqo‘m nashri.
2. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi. (2023). Uy-joy qurilishi sohasidagi investitsion loyihalar monitoringi. Toshkent: QUMXV axborot byulleteni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-sonli farmoni. (2022). 2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent: Prezident matbuot xizmati.
4. Asian Development Bank (ADB). (2022). Housing Sector Development in Central Asia: Challenges and Opportunities. Manila: ADB Publishing.
5. World Bank. (2021). Public-Private Partnerships in Housing and Infrastructure: Global Best Practices. Washington, DC: World Bank Group.
6. Nurimbetov, R. I., & Allasugirov, N. B. (2023). Qurilish sanoatida investitsiya samaradorligini oshirish mexanizmlari. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy jurnali, 4(2), 56–64.
7. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). (2020). Housing 2030: Effective policies for affordable housing in the UNECE region. Geneva: UNECE.

URGANCH SHAHRIDAGI AVTOBEKATLARNI LOYIHALASH TAMOYILLARINI TAKOMILLASHTIRISH

A.A.Qutliyev

Abu Rayhon beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish” kafedrası
dotsenti, t.f.f.d., Hamid olimjon ko‘chasi, 14-uy

M.I. Sobirova